






## 2022- yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida jami **1 605,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda**



2022- yilning 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 756 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 163 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **119,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **53,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **134,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **96,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **38,1 %**) o'sishidir.




**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.05.2021- yil	01.05.2022- yil	
	<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1593</b>	<b>1756</b>	<b>110,2</b>
	<b>Navoiy sh.</b>	<b>454</b>	<b>488</b>	<b>107,5</b>
	<b>Zarafshon sh.</b>	<b>129,0</b>	<b>163</b>	<b>126,4</b>
	<b>G'ozg'on sh.</b>	<b>1</b>	<b>7</b>	<b>700,0</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Karmana</b>	<b>263</b>	<b>299</b>	<b>113,7</b>
	<b>Konimex</b>	<b>35</b>	<b>42</b>	<b>120,0</b>
	<b>Qiziltepa</b>	<b>235</b>	<b>258</b>	<b>109,8</b>
	<b>Navbahor</b>	<b>187</b>	<b>191</b>	<b>102,1</b>
	<b>Nurota</b>	<b>99</b>	<b>122</b>	<b>123,2</b>
	<b>Tomdi</b>	<b>41</b>	<b>40</b>	<b>97,6</b>
	<b>Uchquduq</b>	<b>54</b>	<b>44</b>	<b>81,5</b>
	<b>Xatirchi</b>	<b>95</b>	<b>102</b>	<b>107,4</b>




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2022- yil 1- may holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy shahri (27,8 %), Karmana (17,0 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **261,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **98,0** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **16,3** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,3 %** ni), Qiziltepa tumaniga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,8 %** ni) va Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,0 %** ni) to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,8 %** ga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar- aprel oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,5** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan **102,7 %** ni tashkil etgan holda **1 056,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **17,9 %** ni tashkil etdi yoki **287,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **120,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **70,8** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 534,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,4 %** va **95,6 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2022- yilning yanvar-fevral oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 605,2</b>	<b>1 534,4</b>	<b>100,0</b>	<b>70,8</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	470,2	443,7	28,9	26,5	37,4
Zarafshon sh.	273,1	229,7	15,0	43,4	61,3
G'ozg'on sh.	12,5	12,5	0,8	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	141,2	141,2	9,2	-	-
Konimex	18,2	18,2	1,2	-	-
Qiziltepa	333,1	333,1	21,7	-	-
Navbahor	108,8	108,8	7,1	-	-
Nurota	90,5	90,5	5,9	-	-
Tomdi	9,6	9,6	0,6	-	-
Uchquduq	28,9	28,9	1,9	-	-
Xatirchi	119,1	118,2	7,7	0,9	1,3

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik  
qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-aprel oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,0 % ni yoki **1 300,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **225,9** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yangi qurilish ishlaridagi ulushi 30,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **251,3** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **253,8** mlrd. so‘m yoki ularning jami yangi qurilish ishlaridagi ulushi 34,7 % ni tashkil etdi.






**2022- yilning yanvar-aprel oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sinh sur‘ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 605,2</b>	<b>104,6</b>	<b>731,0</b>
Navoiy sh.	470,2	102,1	182,7
Zarafshon sh.	273,1	100,7	133,8
G‘ozg‘on sh.	12,5	258,1	10,2
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	141,2	101,3	74,6
Konimex	18,2	95,3	8,0
Qiziltepa	333,1	117,0	148,4
Navbahor	108,8	101,0	49,7
Nurota	90,5	100,8	40,9
Tomdi	9,6	100,7	3,7
Uchquduq	28,9	100,4	11,0
Xatirchi	119,1	100,3	68,0

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **19,1 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,0** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **9,4** punktga ko'payib, **63,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,6** punktga ko'paydi, **17,9 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,3 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **1,1 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,7 %** (**1,1 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,7 %** ga kamaydi va **39,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **60,1 %** ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,7 %** ga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-aprel oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 605,2</b>	<b>1 300,7</b>	<b>191,3</b>	<b>113,2</b>
Navoiy sh.	470,2	410,4	41,2	18,6
Zarafshon sh.	273,1	206,4	47,0	19,7
G'ozg'on sh.	12,5	10,1	1,0	1,4
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	141,2	120,8	13,8	6,6
Konimex	18,2	16,2	1,1	0,9
Qiziltepa	333,1	289,9	27,5	15,7
Navbahor	108,8	81,2	14,1	13,5
Nurota	90,5	52,3	21,3	16,9
Tomdi	9,6	5,5	1,6	2,5
Uchquduq	28,9	21,5	3,5	3,9
Xatirchi	119,1	86,4	19,2	13,5

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Konimex tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 89,0 % ni yoki **16,2** mlrd. so'm), shuningdek, Navoiy shaharida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,3 % ni yoki **410,4** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,0 % ni yoki **289,9** mlrd. so'm) qayd etildi.




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 23,5 % ni yoki **21,3** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,2 % ni yoki **47,0** mlrd. so'm), Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 16,7 % ni yoki **1,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 26,0 % ni yoki **2,5** mlrd. so'm), Nurota tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,7 % ni yoki **16,9** mlrd. so'm), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 13,5 % ni yoki **3,9** mlrd. so'm) qayd etildi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. soʻmda)



**Maʼlumot uchun:** Qurilish

ishlarining eng yuqori hajm koʻrsatkichi Navoiy shahri (470,2 mlrd.soʻm), Qiziltepa tumanida (333,1 mlrd.soʻm), Zarafshon shahri (273,1 mlrd.soʻm), Karmana (141,2 mlrd.soʻm) tumaniga toʻgʻri keldi.

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi boʻlimi

Tel.: (71) 202-85-20;  
(79) 223-54-73